

ARAB TILIDA JINS KATEGORIYASI

THE CATEGORY OF GENDER IN THE ARABIC LANGUAGE

Mannofova Tahmina Abdurashid qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

tahminamannofova2007@gmail.com

Ilmiy rahbar: Umurzakova Aygul Umarovna

O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilida jins kategoriyasi, ya'ni muzakkar va muannasning grammatik mohiyati, turlari atroflicha yoritilgan. Jins kategoriyasining otlar, sifatlar, fe'llar va boshqa so'z turkumlari bilan grammatik kelishuvi misollar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, arab tilida jins kategoriyasini o'rganishda talabalar duch keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Maqolada arab tilidagi jins kategoriyasi boshqa tillardagi jins kategoriyasi bilan qiyosiy jihatdan ham tahlil qilinadi. Ushbu maqola arab tili o'rganayotgan talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin

Kalit so'zlar: arab tili, grammatika, jins kategoriyasi, muzakkar, muannas, nahv.

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается грамматическая сущность и виды категории рода в арабском языке, а именно мужской и женский род. На примерах анализируется грамматическое согласование категории рода с существительными, прилагательными, глаголами и другими частями речи. Также освещаются трудности, с которыми сталкиваются студенты при изучении категории рода в арабском языке, и предлагаются пути их преодоления. В статье проводится сравнительный анализ категории рода в арабском языке с категорией рода в других языках. Данная статья может быть полезна для студентов, изучающих арабский язык.

Ключевые слова: арабский язык, грамматика, категория рода, мужской род, женский род, нахв.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the grammatical nature and types of the gender category in the Arabic language, namely masculine and feminine. The grammatical agreement of the gender category with nouns, adjectives, verbs, and other parts of speech is examined through illustrative examples. In addition, the difficulties faced by students in learning the gender category in Arabic and effective ways to overcome them are discussed. The article also presents a comparative analysis of the gender category in Arabic with that of other languages. This article may be useful for students studying the Arabic language.

Keywords: Arabic language, grammar, gender category, masculine, feminine, nahv.

Bugungi kunda arab tili dunyo miqyosida muhim tillardan biri hisoblanadi. Arab tili nafaqat diniy va madaniy sohalarda, balki siyosiy, iqtisodiy va ilmiy

munosabatlarda ham keng qo'llanilmoqda. Arab tilini chuqur o'rganish uchun uning grammatik tizimini mukammal egallash zarur. Ana shunday muhim grammatik tushunchalardan biri — jins kategoriyasidir. Arab tilida jins kategoriyasi boshqa ko'plab tillarga nisbatan ancha faol bo'lib, u faqat otlarga emas, balki sifatlar, fe'llar, olmoshlar va sonlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli jins kategoriyasini to'g'ri tushunmasdan turib, arab tilida grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish mushkul hisoblanadi.

Jins kategoriyasi— bu so'zlarning grammatik jihatdan erkak (muzakkar) va ayol (muannas) jinsiga bo'linishidir. Arab tilida deyarli barcha otlar va ularga bog'liq bo'lgan so'zlar jins kategoriyasiga ega.

Arab tilida jins kategoriyasi النحو (nahv) ilmining muhim bo'limlaridan biri sanaladi. Arab tilida jins kategoriyasi ikki asosiy turga bo'linadi:

Muzakkar (المذكر) — erkak jins

Muannas (المؤنث) — ayol jins

Bu bo'linish nafaqat tirik mavjudotlarga, balki jonsiz predmetlarga ham taalluqlidir.

MUANNAS—ayol jinsiga dalolat qiluvchi ismlarga muannas deyiladi. Arab tilida muannas so'zlar maxsus belgilar orqali farqlanadi yoki lug'aviy yo'l bilan yodlanadi.

So'zning muannas jinsda ekanligini ko'rsatuvchi morfologik belgilar uchta:

1. So'zning ة (ta marbutta) bilan tugashi. Masalan: امرأة-ayol, جريدة-gazeta.

2. So'zning ا (alif mamduda) bilan tugashi. Odatda bu belgi فعلاء vaznidagi rang va jismoniy holatni bildiruvchi sifatlarda va ba'zi otlarda bo'ladi. Masalan: حمراء-qizil rang, صحراء-sahro.

3. So'zning ي (alif mamduda) bilan tugashi. Bu turdagi so'zlar kamdan kam uchraydi. Masalan: خُشْخَبَارٌ-xushxabar, ذِكْرِي-eslash.

Shuningdek, arab tilida yana shunday so'zlar mavjudki, ularning jinsi grammatik belgilarga emas, balki shu so'zning mazmuniga qarab belgilanadi. Ular quyidagilardir:

1. Ayollarning ismi yoki ayollarni bildiradigan so'zlar. Masalan: زَيْنَبٌ-ona, Zaynab ismi.

2. Tanadagi juft a'zolarini bildiruvchi so'zlar. Masalan: رجلٌ-qo'l, زوجٌ-oyoq.

3. Aniqlik artikli va tanvin qo'shimchasini olmaydigan geografik nomlar hamda xalq nomlari. Masalan: بغداد-Bag'dod, مصر-Misr.

4. Bu turdagi ismlarda muannaslik alomatlari ham yo'q va mazmunan ayol jinsiga dalolat qilmaydi. Ko'pincha ular yaratilishiga ko'ra yagona bo'lgan narsalar hisoblanadi. Ular samo'iy muannas deb ataladi. Masalan: شمسٌ-quyosh, نارٌ-olov, أرضٌ-yer.

Bundan tashqari, insonni bildirmaydigan to'g'ri ko'plik (جمع سالم) dan tashqari barcha ko'plikdagi so'zlar, siniq ko'plik (جمع مكسر) lar ham muannas jinsida hisoblanadi.

Muannas turlari:

1. **Haqiqiy lafziy muannas**—ayol jinsiga dalolat beradi va muannaslik belgisi bo'ladi. Masalan: طالبة-talaba qiz, فاطمة-Fotima.

2.**Haqiqiy ma'naviy muannas**—ayol jinsini anglatadi, lekin muannaslik belgisi bo'lmaydi. Masalan: أخت-*opa*, مريم-*Maryam*.

3.**Majoziy lafziy muannas**—ayol jinsiga dalolat bermaydi, lekin muannaslik belgisi bo'ladi. Masalan: سيارة-*mashina*, شجرة-*daraxt*.

4.**Majoziy ma'naviy muannas**—ayol jinsiga dalolat qilmaydi va muannaslik belgisi ham bo'lmaydi. Masalan: شمس-*quyosh*, أرض-*yer*.

MUZAKKAR — erkak jinsiga dalolat qiluvchi ismlarga muzakkar deyiladi. Ularda muannas kabi maxsus belgilar bo'lmaydi. Muannas so'zlardan tashqari qolgan hamma so'zlar muzakkar jinsda hisoblanadi.

Muzakkar turlari:

1.**Haqiqiy muzakkar**— inson yoki hayvonlarda erkak jinsiga dalolat beradi, lafzda muzakkar hisoblanadi, ya'ni hech qanday muannaslik alomatlari bo'lmaydi.

Masalan: رَجُلٌ-*erkak kishi*, جَمَلٌ-*tuyaning erkagi*.

2.**Hukmiy muzakkar**: inson yoki hayvonlarda ma'nosi erkak jinsiga dalolat qilmaydi, lekin lafzda muzakkar hisoblanadi.

Masalan: كِتَابٌ-*kitob*, ذَهَبٌ-*oltin*.

3.**Ma'naviy muzakkar**: ba'zi ismlar borki, ularda muannaslik belgilarini ko'rishimiz mumkin, lekin ularning ma'nosi erkak jinsidan dalolat beradi.

Masalan: حمزة-*Hamza* عيسى-*Iso* kabi erkak kishining ismlaridir.

Bu turdagi ismlar lafziy muannas deb ham yuritiladi.

Shuningdek, ة (ta marbutta) bilan tugamagan ayrim otlar har ikkala jinsda ishlatilishi mumkin. Masalan: فَرَسٌ-*ot*, كَبِدٌ-*jigar*.

Bundan tashqari, ba'zi otlar va sifatlarning muzakkar shaklidagisiga ة (ta marbutta) qo'shib, shu so'zning muannas jinsdagisini hosil qilish mumkin. Masalan: أُمٌّ-*amaki*, أُمٌّ-*amma*, كَبِيرٌ-*katta* (muzakkar jinsdagilarga nisbatan), كَبِيرَةٌ-*katta* (muannas jinsdagilarga nisbatan).

Jins kategoriyasining ahamiyati

Arab tilida jins kategoriyasi gapdagi barcha asosiy bo'laklar o'rtasidagi kelishuvni ta'minlaydi. Quyidagi holatlarda jinsga moslashuv kuzatiladi:

1.**Moslashgan aniqlovchi (صفة موصوف)**— bunda ot va sifat kelganda ular jinsda moslashishi talab etiladi, ot qaysi jinsda bo'lsa sifat ham shu jinsda kelishi shartdir. Masalan: البيت الكبير-*katta uy*, الزهرة الجميلة-*chiroyli gul*.

2.**Ega va fe'l o'rtasida**- bunda eganing jinsi qanday bo'lsa, shu jinsga qarab fe'l tuslanib qo'yiladi. Masalan: أبي يعمل-*otam ishlaydi*, أمي تعمل-*onam ishlaydi*.

3.**Ot va olmosh o'rtasida**—ot qaysi jinsda bo'lsa olmosh shunga moslab qo'yiladi. Masalan: هذا القلم-*bu qalam*, هذه سيارة-*bu mashina*.

Jins kategoriyasini o'rganishda uchraydigan qiyinchiliklar

Arab tilini o'rganayotgan talabalar jins kategoriyasi borasida bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Jumladan: Majoziy muannas so'zlarni aniqlash, belgisiz muannas otlarni yodlash, fe'l, ot va sifatlarning jinsga moslashuvi kabi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ko'proq amaliy mashqlar bajarish, matnlar bilan ishlash va lug'at bilan muntazam shug'ullanish tavsiya etiladi.

Arab tilida jins kategoriyasining boshqa tillar bilan taqqoslanishi

Tilshunoslikda jins kategoriyasi ko'plab tillarda uchraydi, biroq uning namoyon bo'lishi va grammatik faoliyati tillarga qarab farqlanadi. Arab tilida jins kategoriyasi juda faol bo'lib, u nafaqat otlarda, balki sifatlar, fe'llar, olmoshlar va sonlarda ham qat'iy ko'rinadi.

O'zbek tilida grammatik jins kategoriyasi mavjud emas. Bu holat arab tilini o'rganayotgan o'zbek talabalari uchun muayyan qiyinchiliklar tug'diradi, chunki ular jinsga moslashuv hodisasiga odatlanmagan bo'ladilar.

Rus va nemis tillarida esa jins kategoriyasi mavjud bo'lib, otlar erkak, ayol va o'rta jinsga bo'linadi. Biroq bu tillarda jins kategoriyasi asosan otlar va sifatlar doirasida saqlanib, fe'llarga arab tilidagidek kuchli ta'sir ko'rsatmaydi.

Ingliz tilida grammatik jins deyarli yo'q bo'lib, jins asosan leksik yo'l bilan yoki olmoshlar orqali ifodalanadi (he, she, it). Ingliz tilida sifat va fe'llar jinsga qarab o'zgarmaydi.

Shu jihatdan qaraganda, arab tilida jins kategoriyasi boshqa tillarga nisbatan kengroq va murakkabroq tizimga ega bo'lib, u gap tuzilishida muhim grammatik rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilida jins kategoriyasi muhim grammatik tushunchalardan biri hisoblanadi. Muzakkar va muannas jinslarini to'g'ri farqlash va ulardan o'rinli foydalanish arab tilida savodli nutq hosil qilishga yordam beradi. Arab tilidagi jins kategoriyasining boshqa tillar bilan qiyosiy tahlili ushbu tushunchaning o'ziga xos va murakkab jihatlarini yanada yaqqol namoyon etadi. Jins kategoriyasini puxta o'zlashtirish til o'rganish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024
2. Ahmad Hodiy Maqsudiy, Istikmal.–Toshkent, 2014
3. Hifni Nosif, Muhammad Solih, Muhammad Diyab, Mustafo Tommum, Durussu nahviya–Toshkent, 2010.
4. Mirqobil Hasanov, M. Abzalova. Arab tili darslari–Toshkent, 2016.